

OTA – ONALAR VA FARZANDLAR O’RTASIDAGI ZIDDIYATLARNING AYRIM SABABLARI

Davurova Go`zal Akbarovna- Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi o`qituvchisi Qurbonva Mohira Mustafo qizi Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi.

Anatatsiya: ushbu maqolada ota-onalar va farzandlar o’rtasidagi nizo, konflikt va kelishmovchiliklarning asl sabablari haqida fikr yuritilgan va ularni bartaraf etish yo’llari taklif va mulohazalari ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: ta’lim, tarbiya, konflikt, nizo, kelishmovchiliklar, oilaviy munosabat, farzand tarbiyalash.

Ilmiy – pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo’lib shu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy ma’naviy qiyofassini ko’radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichi jamoa orasida oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Shu bilan birga oila bu jamiyatning bir bo’lagi ekan undagi xato-kamchiliklar, yutuqlar yuksalishlar oilada ulg’ayayotgan, tarbiyalanayotgan farzandlarga albatta bog’liq. Bir yaxshining bir yomoni bo’lganidek, oilada ham turli xil kelishmovchiliklar, nizolar bo’lib turadi, masalan: er-xotin, qaynona- kelin, qaynona- kuyov, ota-onalar va farzand, aka-uka, opa-singil, ovsinlar o’rtasidagi kelishmovchiliklar bo’lishi mumkin. Bu esa hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda va quyidagi psixolog-pedagog olimlar o’zlaring turli xil fikr mulohazalar bildirishgan.

O.E.Semirov ota-onalar farzand tarbiyalash jarayonida ham duch kelishi mumkin bo’lgan nizolarni ajratadi.

1) Oilaviy ta’limning buzilishi. Oila a’zolarining ta’lim masalalari bo’yicha kelishmovchiliklar. Bolalarning ko’payishi, tahdidlarni tez-tez ishlatish hukm qilishlar nizoga sabab bo’ladi.

2) Kunduzgi munosabatlar. Shubhasiz bu qulay oilaviy munosabat kelishmovchiliklar oldini oladi, agar ota-onalar farzandi bilan yetarli darajada kontaktda bo’lsa.

3) Bolaning yoshi oshishi. Mojarolarning ko’payishiga olib keladi, deb qaraladi. Ilmiy tilda yosh inqirozi - bu bolaning bir bosqichdan boshqa bosqichga o’tishi. Aynan shu davrda bola og’ir, yaramas, injiq asabiyashadi. Ular ko’pincha boshqalar bilan ayniqsa ota-onalar bilan to’qnashuvlarga keladi.

4) Shaxsiy omillar. O.E.Semirova buni aynan ota-onalar shaxsiy xususiyatlari xulq-atvori va zarali odattalari (alkagol, kashandalik va hokazo) bolaning shaxsiy xususiyatlari orasida past ko’rsatkichlar ega bo’ladi. Shuningdek, xulq-atvor qoidalarini buzish, ota-onalar tavsiyalari, tarbiyasiga bola o’jarlik, egoizim va hokazolar bilan reaksiya bildiradi.

Bundan tashqari kuzatuvlardan natijasida ota-onalar psixologik- pedagogic bilim saviyasingning yetarli darajada emasligi, farzandlari bilan muloqotning kamligi, ota-onalar ichkilikka ruju qo’yish yoki farzand burchini unitib qo’yishi, farzand ota-

onadan keragidan, ortiq moddiy jihatini inobatga olmagan xolda talabining ko'pligi va buni aksi bolaga nisbatab ota-onaning talabning kuchliligi uni erkin qo'ymasligi kabi kamchiliklari natijasida kelishmovchiliklar bo'ladi, oilada halovat yo'qoladi. Yoshdag'i xususiyatlар qarshi tomonning xulosasini qabul qilmashlik, o'smirda hayotga bo'lgan qarashning sezilarli darajada o'zgarishidir.

V.V.Stolin mojarolarni hal qilishning bosqichma-bosqich modelini taklif qilinadi:

- 1) Mojaro holatini tozalash - ota-onsa bolasini tinglaydi, unga kerak bo'lмаган narsalarni talab qilmaydi.
- 2) Tarfil usuli-bunda ota-onsa bolaga murojat qiladi, «Biz qanday bo'lamiz?» Bolani kutish va javob berish jarayonini inobatga olishi lozim.
- 3) Taklifni muhokama qilish va baholash - bu atmosferani qo'pol tanqid yoki avtorizm bilan to'ldirmaslik muhimdir.
- 4) Qabul qilingan qaror tafsilotlari - haqiqiy hayotni qanday hal qilishini aniqlash kerak.
- 5) Qarorni bajarish - barcha oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar atrofdagi dunyo bola tomonidan idrok qilinar ekan. Bolaning xatti-harakatlari va uning shaxsiy xususiyatlari nafaqat oilaviy hayotning shartlari, balki ularning idrok etishlari, bolalarning ichki faoliyat darajasi bilan bog'liq, ya'ni ota-onsa bolasi bilan qanday munosabatda bo'lsa farzand ham atrofdagilari bilan ham shunday munosabatda bo'ladi. Xalqimizda shunday maqol bor «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Ota-onsa farzand tug'ilganida uni bor mehri bilan parvarish qiladi, erkelaydi, tarbiyalaydi. Lekin hamma mukammal emas, albatta, xato, kamchiliklar bo'ladi. Har bir oilada mojarolar va har xil muammolar kuzatilishi mumkin. Er-xotin munosabatidagi kelishmovchiliklar urush-janjal, xatti-harakatlar regulyator bo'lib, ular bola shaxsiyatining rivojlanishiga vositachilik qiladi. Ota-onaning bir-biriga munosabati, farzandining ruhiyati ota-onasiga bo'lgan munosabatiga ta'sir qidi. Biz uchun esa bunday munosabatlar tabiiydek, oddiy xoldek, ko'z yumib ketamiz vaholanki bu sharoitda kelajak avlod tarbiyalanyapti.

Ota – ona farzandi bilan munosabatini o'rganib chiqib quyidagi xulosaga kelishi mumkin. Ota – ona farzandi bilan ko'proq munosabatda bo'lishi, uning yosh xususiyatlarini, yoshga oid inqiroz davrini inobatga olishi, ota – ona farzand tarbiyasidagi, u bilan munosabatdagi bilimlarini o'rganishi, pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida yozilgan ilmiy nazaryalarni yosh ota-onalar o'qib, o'rganib chiqishi hamda farzand tarbiyasida ushbu olgan bilimlaridan foydalaniishi foydadan holi bo'lmaydi. Chunki hozirgi kundagi bolalarni hayratlantirish oson ish emas. Shu sababdan bola bilan munosabatga kirishganda yetarli bilimga ega bo'lish kerak. Shuningdek, kattalar farzandlarini yoshiga ajramasdan birdek mehr berish, katta farzandlarga tushadigan mas'uliyatni taqsimlash va ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishi hamda o'z farzandlarining ichki dunyosini bilishi lozim. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 2.Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 3.Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 4.Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 5.Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- 6.Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 8.Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.